www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Korreksion pedagogikaning shaxs ijtimoiylashuvidagi ahamiyati

Qorong'ulik ortida albatta
nurli manzil bo'lishi muqarrar

Xalilova Shaxlo Ravshanovna
Osiyo Xalqaro Universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maxsus pedagogikaning shaxs ijtimoiylashuvidagi ahamiyati zamonaviy pedagogik qarashlarining o'ziga xosligi. Didaktik qarashlardan bugungi ta'lim jarayoning zamonaviy pedagogik jihatlari o'rin olgan.
Kalit so'zlar: Korreksion pedagogika, inkluziv ta'lim, shaxs, ijtimoiylashuv, individ, tiflopedagogika.
Abstract: The importance of special pedagogy in the socialization of the individual is the uniqueness of modern pedagogical views in the article. The modern pedagogical aspects of today's educational process are included in didactic views.
Key words: Correctional pedagogy, inclusive education, personality, socialization, individual, child pedagogy.

Mashhur rus adibi V. G. Korolenkoning "Ko'r musiqachi" nasriy poemasi fayzli, ziyoli, o'ziga to'q oilada onadan ko'zi ojiz bo'lib tug'ilgan jismonan kemtik bolaning ruhiy kechinmalari, qalbidagi iztiroblari, istedodli bolaning kamolot pillapoyalarida yuksalishi, ruhiy iztiroblari, uning sevgisi, mahbubasiga bo'lgan munosabatlarini lirik etyud shaklida tarannum etadi. Tug'ma ko'zi ojiz bola ruhiyatini ifodalashda Korolenko shunday mahoratdan foydalanadiki, biz bunda ko'zi ojiz boladan kechayotgan psixik holatlarni qoya toshlarga urilib chil-chil bo'lgan otashin qalb egasining yana ummon qariga asirlangan tuyg'ulari guvohi bo'lishimiz mumkin. Bola tug'ma ko'r bo'lishiga qaramay uning azaliy orzusi bir zum bo'lsada yorug'likni ko'rishni xoxlaydi. Quyosh botayotganda nurlarini zamin uzra taratib, mayin esayotgan shamolning daraxt shoxlarini tebratib qorong'ulikka g'arq bo'lganligini ko'rishni xohlar edi. "Kor musiqachiga" bir qarashda oddiy bir tug'ma ko'r bolada deysizu rahmingiz keladi, ammo uning ichki olamiga asta sho'ng'iy boshlaganingizda dengiz tubidagi noyob marvarid donasi singari ko'zingizni oladi, uni tuproq ustidan ilg'ab ololmasligizni tushunib yetganingiz sari bola o'z dunyosining tilsimini astalik bilan sizga oshkor eta boshlaydi. Bu ham Korolenkoning mahoratidir. "Ko'r musiqachi" jismonan nozik lekin uning qudratli kuchi mavjudki, bu unga dengiz qaridagi javohirdan tortib, ko'kda parvoz qilgan burgut qanotlari orasidan o'tuvchi shamol singari mayinlik bag'ish etadi. Bunda sezgilarining har biri alohida ahamiyatga ega. Birining o'rnini biri qoplay olmaydi. Ammo qilingan mehnat, chuqur o'rganishlar – u shohsupaga bo'lgan intilish natjasida qolgan sezgilar orqali birining vazifasini bajarish mumkin. bolaning ko'zi ojiz bo'lgani bilan uning eshitish, hid bilish, tamni hamda tana orqali sezishi mumkin. yana bir inson uchun muhim sezgilaridan biri bu oltinchi bo'lib qo'shilgan ichki sezgidir. Bu sezgi albatta ruhiy kechinmalar va bizga asli nomalum lekin eng yaqin do'stimiz qalbimiz bilan bog'liqdir. Inson sezgi a'zolarining amaliy harakatlari natijasini miyyaga uzatadi. Miyyaning o'rganishlari natijasini esa Qalb qabul qilib oladi. Ko'zi ojiz insonning miyyasi va qalbi birlashib, tafakkur shakllanadi.

Bu bilan bolaning kamolotga yetishida sezish va eshitish sezgilari bilan uning hissiy tuyg'ulari va olgan taassurotlari mumkin qadar uyg'unlashib yaxlit kompazitsiya hosil bo'lganida ma'lum bir voqeilikni idrok eta olishi, uni o'rab turgan olamda jo'shqin harakatlanayotgan va tarix bitiklaridan joy olish ilinjida ro'y berayotgan rangin voqeiliklar

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

bolaning mushtdek jussasiga jaranglagan ovozlar “zarba” berar edi. U olamni yoqimli, daxshatli hayqiriq va musiqaning mayin notalari orqali idrok eta olishi mumkin edi. Korolenko “Ko’r musiqachi”ni qurshab olgan ohanglarga nisbatan “Turli tuman tovushlar ko’zi ojiz bola qulog’iga birin-ketin tizilishib kelar, bolani qurshab olgan to’lqinlar borgan sari kuchayib qorong’u dunyodagi guldirayotgan zulmatdan chiqib yangi to’lqinlar, yangi ovozlar bilan almashinib yana o’sha zulmatga qaytar edi”, - deya tarif beradi.

Korolenkoning “Ko’r musiqachi” asarida bolaning tarbiyasida xalq qadriyatlari, milliy madaniyat va tarixning cheksiz talqinida tog’asi Maksim obrazi beqiyos ahamiyat kasb etibgina qolmay, bolaning zulmat dunyosidan chiqishida xizmati katta edi. Maksim bu borada milliylikni, xalq poemasi va zamon o’tishi bilan yo’qolib, tarixiy qadriyatlarni tarannum etuvchi qadimgi xalq qo’shiqlarining sirlari orqali bola tarbiyasini shakllantira boshladi. Kuylardagi jo’shqinligi qadimiy yodgorlilarning viqori singari baland va cho’zib aytilishi, maydonlarda cholg’ularning tebranishi va hashak ortilgan aravalar ostida maydalangan bug’doy boshoqlarining g’irchillashi, tinchlik uchun kurashga otlangan yigitning mahbubasiga aytilgan shijoatli so’zlari shu ohanglar orqali bola qalbiga kirib borardi. Bu manzara allaqachonlar yo’q bo’lib ketgan tuman kabi xira o’tmishni birin-ketinlik bilan varaqlar ekan bola ongida xalqona ohanglarga mehr paydo qilib, chalkash tuyg’ularni qo’zg’atib yuboradi. Korolenko Maksim obraziga “Chavaqlangan tanasida otashin mehr va mehribon yurak, qalin sochlar bilan qoplangan so’poq boshida esa tolmar fikr ishlayotgan nogiron” – deya tarif beradi. Nogiron bo’lsada tashqi olamni ko’rib fikrlay oladi va Bolaning ojizligini aytmaganda u jismonan sog’lom. agar tabiatga shanday qudrat in’om etilib ikkovini birlashtira olganida bir butun inson yaratilishi mumkin edi. Har ikkisi ham injiq va o’zlaricha qaysar. Biroq bolani tantiqlik muhitidan olib, mustaqil hayotga o’rgatish uning tarbiyachilari zimmasida ekanligi bolani kuzata turib Maksim tog’asi ilg’ay oladi.

“Ko’r musiqachi” asarida “tug’ma ko’r” va “orttirilgan ko’r” tushunchalariga ham alohida to’xtalib o’tilishi bejiz emas. Bu tushunchalarning mohiyatidan “ko’zi ojizlik” ma’nosi tursada biri dunyoni tasavvur eta olishi, yorug’likni his qila bilishi uchun uni ko’ra olgan va bu imkoniyatdan mosivo bo’lgan, yana birini esa faqatgina zulmat qoplab u faqat taffakkuri orqali anglay oladi. Buni ifodalash uchun Korolenko asar qahramoni “Ko’r musiqachi”ning oldiga yana bir “Ko’r qo’ng’iroqchi”ni qarshisiga chog’laydi. Ularning qiyofasi o’xshashligi bilan bir qatorda ayanchli qismatlari ham taqdir chizgilaridan nusxa olingan. Bu qiyofalar ularning ruhiy kechinmalarini to’zg’itib har ikkalasini ikki tomonga “badarg’a” qiladi. Biroq birining qiyofasida besaranjom taqdiridan nolinish alomatlari uni serzarda va serjahl muomalada ifodalabgina qolmay, borliqni yana ham qorong’ulashtirib hayoti tor qo’ng’iroqxonada kechsa , ikkinchisida esa aksincha musiqaning bepoyon kengliklarida taqdiri ustidan tortilgan kurashi muloyim va samimiy tabassumida gavdalanar edi.

“Ko’r musiqachi”ni qurshab olgan botiniy olam nihoyatda yorug’liklarga limmo-limki zumlat yo’laklaridan nurli mazil sari yetaklaydi. Sharqda va g’arbda din dunyoqarash qanchalik bir biridan farqlangari singari adabiyotida ham bir qancha qarama-qarshiliklar mavjud. Buni biz “Ko’r musiqachi” asari orqali tahlil qiladigan bo’lsak bunda asosan botiniy va zohiriy olam atamalarining ifodasini keltirishdan boshlasak Sharq mutasavvuflaridan Imom G’azzoziy “Insonning zohiriy-tashqi ko’ziga muqobil bir botiniy –ichki ko’zi ham bor bo’lib, unga “qalb ko’zi” deyiladi[1]”,- deganlar. Olimlarning e’tirof etishicha “Basirat” mistik – psixologik sirlarni o’zlashtirishda tuyg’u a’zolariga tayanadigan tashqi ko’rish sezgu a’zosi unchlik ish bermaydi va nafislik, go’zallik ranglari bilan burkangan sirlarni bilishda ochilgan qalb ko’zigina anglay olishi mumkin. “Yangi olmon psixalogiyasibizga ayturki, - deydi mashhur Pokiston shoiri Muhammad Iqbol , - aqliy faoliyat diqqat ila nazardan o’tkazilsa, bunda sof va tabiiy hislar silsilasidan ko’ra “Basirat” kayfiyati ko’proq yuzaga kelishi ravshanlashur”. Chunki zamon va makon, inson

[1] I. Haqqulov “Navoiyga qaytish” 94-bet.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

munosabatlarini aniq belgilashda, haqiqat va mohiyatni xatosiz aniqlashda botiniy olam xizmatga bel bog'laydi. Bu Imom G'azzoliyning " Aqldan narida o'zga bir davra bordurki, unda boshqa bir ko'z, ya'ni basirat ochilur. Basirat ila inson g'aybni ko'rur, kelajakda voqe bo'lajak xodisalarni, aql anglashga ojiz bo'lgan ayrim bo'lajak xodisalarni anglay olur" degan fikrida o'z isbotini topgan. Korolenkoning "Ko'r musiqachi" asarida bola o'zining botiniy olami yordamida o'zi uchun murakkab va bir qancha tushunarsiz chigalliklar qurshovidagi zohiriy olamini kashf etadi. Buning hosilasi o'raloq insonda fanga nomalum bo'lib abadiyatga muhrlangan "QALB KO'ZI" ochiladi.

Bu borada bolaga taqdiriga avvaliga achinish nigohida so'ngra uning taqdiriga befarq qaray olmagan beg'ubor va bir umrlik do'sti Evilinaning hissasi beqiyos. Beg'ubor qalblardagi bu do'stlik bolalikdanoq hammaga berilmaydi. Bu esa Pyotrga atalgan taqdirning tuhfasi ekanligiga onasining ham ishonchi komil edi. Muhabbat yo'lida qayg'u hasrat chekish va shu bilan birga o'zlarini fido etish bu ikki juftlikning qismatlariga qarshi chiqa olmaydi. Bu qahramonlarga tabiatning o'zi ulardagi shaxsiy manfaatparastlikni ataylab olib, o'rniga beg'ubor bolalarcha oqko'bgil qalb in'om etadi. Ular tashqi tomondan sovuqqon, insoniyatga beparvo, his – tuyg'ulardan mahrum ko'rinsalarda aslida otashin qalb ularga hamrohlik qilardi. Baxtiyorlikning yorqin yo'lidan birgalikda ayanchli taqdir ustidan kurash olib borar edi. Dunyoning chirkin ishlari, zulmat ortiga berkinib oyoqlari ostida qolib ketaverardi.

Mazkur asarni tahlil qilar ekansiz, bolaning ko'r bo'lib tug'ilishiga kim aybdor edi? Kim edi uni nogiron bo'lmog'ini xohlagan. Bolani yorug'likdan mosivo bo'lishiga dunyoga keltirgan yuragi yarim ona aybdormi? Yoki taqdirining o'ziga o'xshashligidan cho'chigan alamzada Maksim tog'asi aybdormi? Bu savollar nihoyatda murakkab bo'lib, har bir kishi yuragini jumbushga keltirishi ajab emas. Bola ham tengdoshlari singari sohil bo'yida varrak uchirib bolalik xotiralarini zavqqa to'ldirishi, quyoshning zarra nurlaridan basir ko'zlari qamashmog'i mumkin edi. Biroq uning qismati bularni unga hadya etmoqdan o'zini chetga tortdi.

Asar qahramoni azoblanadi, jismonan ojizlik ruhan azoblash bilan birga uni ma'naviy kemtiklik sari yetaklashga chog'lanadi. Buning natijasida jismonan jarohat qalbiga ozor yetkazadi. Mening fikrimcha bunday qismatga ega bo'lishlarida hech birining aybi yo'q, biroq "mening taqdirim shu ekan, buni o'zgartira olmayman" degan o'y bilan kelajakka umidsizlik, sabr - toqat va mehnatsiz hayot kechiradigan bo'lsa, bolani bundanda og'ir hattoki ularni ma'nan ham aqlan halokat kutishi muqarrar edi."Ko'r musiqachi" asariga Korolenko qahramonini turli vaziyatlarga soladi. Hayotni faqatgina oq va yaxshiliklarini emas undagi yurakni tirnaydigan hattoki hayotga nafrat nigohi bilan qarashga undaydi, shu bilan birga uning ruhiyat olamiga yorug'lik ulashadi, unga hayotni faqatgina jismlar orqali emas, ularning asl mohiyatini ko'ra olishga, ularni his qilishga, jismoniy kemtiklik o'rnini ruhiy ozuqa, ma'naviy yetuklik bilan kamolotga undaydi. Qahramoniga ikkita mehnatsiz ammo qorong'u g'aflat dunyosini shu bilan bir qatorda juda qiyin, juda katta mehnat talab qiladigan natijada qalban yorug' yo'l tanlovini ixtiyoriga topshiradi. Bu yo'l oxirida esa bola ko'chalarda odamlardan hayr ehson so'rovchi, ko'chaning shovqin – suronida eshitilmay ketadigan va kishini achintiradigan noladan takka sahnada barchaning xavasi kelib eng baland tondagi olqishlarga muyassar bo'ladi. "Bu – ravshan yorug'likda ko'ringan zulmatni, baxt to'la xayot bilan bir qatorda baxtsizlikning ham borligini eslatuvchi bir madhiya edi"- deydi qahramonini taqdiri ustidan g'alabasiga nisbatan Korolenko.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida har tomonlama sog'lom yoshlar qatorida imkoniyati cheklangan bolalarga e'tibor yuksalib bormoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlarning ma'naniyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlovchi, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va intellektual rivojlangan, o'zining xayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni kamol toptirish, ularni

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi imunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). Bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, *1*(9), 223–234. Retrieved from https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/195
2. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(8), 131–139. Retrieved from https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/1717
3. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH, 1(8), 131–139. https://doi.org/10.5281/zenodo.8239719
4. Ravshanovna, X. S. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILAR VA O 'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO 'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, *1*(1), 814-819.
5. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *1*(1).
6. Mustafoyev, K. (2023). LOOPER MECHANISM OF THE SEWING MACHINE. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(4), 16-18.
7. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.
8. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. Modern Science and Research, 2(9), 390-394.
9. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.
10. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
11. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. Modern Science and Research, 2(9), 424-428.
12. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 209-209.
13. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. Modern Science and Research, 2(5), 1009-1014.
14. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O'RNI. Экономика и социум, (12-2 (103)), 675-678.
15. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG 'ISHGAN XULQINING KO 'RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO 'RINISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 528-532.
16. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

17. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.
18. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.
19. Ikromova, S. A. FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS.
20. Akbarovna, I. S. (2023). DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(6), 26-29.